

OSKAR UAYLD IJODIDA DEKADENTIZM UNSURLARI: "DORIAN GREYNING PORTRETI" ASARI MISOLIDA

Po'lotova Gulmira

Murodovna

Mirzo Ulug'bek nomidagi

O'zbekiston Milliy

universiteti

2-bosqich talabasi

gulmirapolatova01@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz yozuvchisi Oskar Uayldning "Dorian Greyning portreti" asaridagi dekadentizm tushunchasi, g'oyalari hamda uning asosiy belgilari tahlil qilinadi. Bundan tashqari asarda qo'llanilgan tasvirlar, Uayldning til uslubi hamda badiiy vositalar haqida umumiy ma'lumotlar yoritib o'tiladi.

Kalit so'zlar: dekadentizm, estetika falsafasi, axloqiy indifferentlik, dualizm, dekadent tanqid, individualizm, egoizm, erotizm

Kirish. Taniqli ingliz yozuvchisi Oskar Uayld 19-asrning eng ko'zga ko'ringan vakillaridan biri hisoblanadi. 19-asr oxirida Yevropa adabiyotida dekadentizm oqimi kuchayib bordi. Bu oqim san'atning axloqdan ustun qo'yilishi, go'zallikni hayotning yagona maqsadi sifatida ulug'lash, ichki buzuqlik, pessimizm va individualizm bilan ajralib turadi. Oskar Uayld bu davrning eng yorqin vakillaridan biri hisoblanadi hamda uning ijodi ham o'sha davr adabiyotida muhim o'rin egallaydi. Uning yagona roman asari — "Dorian Greyning portreti" — dekadentizmning yorqin namunasi hisoblanadi. Qolaversa, Oskar Uayld haqida bir qancha olimlar, tanqidchilar hamda yozuvchilar o'z fikrlarini bildirib o'tishgan. Harold Bloom – zamonaviy adabiyotshunos, Yale universiteti professori u haqida shunday deydi: "Oskar Uayld ingliz adabiyotidagi eng yorqin va murakkab shaxsdir. Uning "Dorian Greyning portreti" asari — zamonaviy axloqiy drama va dekadentizm falsafasining namunasidir." Bloom Uayldning

asarlarini psixologik chuqurlik va falsafiy izlanishlar bilan boy deb hisoblagan olimlardan biri edi[1]. Bundan tashqari Uayldning mashhur biografi Richard Ellmann Oskar Uayldni hayotini estetik tajribaga aylantirgan san'atkor deb hisoblaydi. Darhaqiqat, Uayld chin ma'noda san'at shaydosi edi deydi ko'plab yozuvchilar. Shuning uchun ham uning yagona romani ham dekadentizmning yorqin namunasi sifatida baholanadi. Olimlar Uaylning tanqidiy fikrlari, estetik dunyoqarashini hamda axloqiy qarama-qarshilikka nisbatan munosabatini yuqori baholaydilar.

Adabiyotlar tahlili. Dastlab, biz dekadentizm atamasiga to'xtaladigan bo'lsak, dekadentizm o'zi nima va Oskar Uayld nima maqsadda bu yo'nalishda aynan o'z romanini yozgan. Dekadentizm, dekadentlik bu lotincha decandentis-tanazzul degan ma'noni anglatadi. Aynan 19-20-asrlarda Yevropa madaniyatidagi umumiy bo'lgan holatni ifoda etgan nom. Bunda tanazzulga yuz tutishlik, hayotdan bezishlik, yolg'izlanib qolish kayfiyati, umidsizlik kayfiyati va boshqa shu kabi hissiyotlar o'z aksini topgan. Shu asr boshlarida ro'y bergan jiddiy o'zgarishlar, yangilanish hamda inqilobiy jarayonlarning kuchayishi ijtimoiy voqelikdagi ziddiyatlarning kuchayishiga olib keldi. Eskilik hamda yangilik o'rtasidagi kurash aynan 19-20-asrlarda avj oldi. Bunday holatni ko'rganlar esa tarix, tabiat, inson tanazzulga yuz tutmoqda degan fikrga keldilar. Ular o'z asarlarida ana shu tanazzul, ijtimoiy inqirozlar va ularning sabablarini, inson boshiga tushgan tashvish hamda qiyinchiliklarni aks ettirishni maqsad qilib qo'ydilar hamda buning natijasida adabiyotda, ya'ni san'at sohasida modernizmning yangi yo'nalishi dekadentizm paydo bo'ldi.

Dekadentlik yo'nalishi dastlab fransuz adabiyotida yaqqol namoyon bo'lgan. "La'nati shoirlar" deb qozongan P.Verlen, A.Rembo, S.Mallarme kabi shoirlar yetakchilik qilgan. Keyinchalik esa bu yo'nalishda ijod qilish Italiyada J. Paskoli she'riyatida ko'zga tashlandi. Uning ijodi uchun mistik kayfiyat, simbolizm bilan hamohanglik xos. 1900-yillarda D. ta'sirida Italiyada kuch-qudratga sig'inishlik va urush oldidagi qo'rquv kayfiyatidagi yangi oqim paydo bo'ladi (G. Gotssano, M. Moretti, F. Martini va b.). D. boshqa qator mamlakatlarga ham yoyiladi. Mas, Germaniyada shoir S. George to'garagi paydo bo'lali. Bu to'garak a'zolari ijodida

Nitsshe g'oyalari ruhidagi afsonaviylik hissiyoti ustunlik qiladi. Rossiyada D. simvolizm oqimiga mansub shoirlar ijodida o'z aksini topadi, lekin bulardagi D. ekspressionizmga ancha yaqinlashib keladi [2]. Bundan tashqari hayotdan qoniqmaslik, uning achchiq saboqlari, yomonliklarga qarshi tinimsiz kurash, mavjud talabga javob bermaydigan narsalarni rad qilish kabi dekadentlarga xos bo'lgan xususiyatlar hozirgi ham jahon adabiyotida o'z ifodasini topmoqda.

Endi “Dorian Greyning portreti” asariga keladigan bo'lsak, Oskar Uayld asarda bir qancha dekandentizm ifodalardan foydalangan hamda uning belgilarini ham ko'rishimiz mumkin. Hozir asardan olingan bir nechta dekandentizm namunalarini ko'rib chiqamiz. Bulardan birinchisi go'zallikni ilohiylashtirish va estetikizm falsafasi. Dastlab, estetikizm falsafasiga to'xtaladigan bo'lsak, bu nafosat falsafasidir. Hamda ba'zi o'rinlarda “san'at falsafasi”deya ham ishlatiladi. Bu dunyoni estetik idrok etish va tushunishga qaratilgan falsafadir.

Dorianning o'z portretiga bergan munosabati — go'zallikni mutlaq qadriyat deb bilishning timsolidir. Uayld Dorian tilidan quyidagi so'zlarni keltiradi:

“Men hech qachon qarigim kelmaydi, Bezil. Bu rasm eskirsin, qarisin, lekin men doim yosh va navqiron bo'lib qolay” (*“I shall stay young, and the picture will grow old. That is all.”*)

Bu so'zlar Dorianning go'zallik va yoshlikka bo'lgan cheksiz ishtiyoqini ifodalaydi. U hatto ruhini tashqi ko'rinish evaziga qurbon qilishga tayyor. Bu — dekadentizmning asosiy belgilaridan biri, ya'ni tashqi shakl va ko'rinishga haddan tashqari sig'inish. Dorian portretini ko'rinishi bilan unga hasad qilishni boshlaydi hamda yillar o'tib tasvir qarimaydi-yu, ammo uning yuzlariga ajinlar tushadi, u qariydi. Ayni shu paytda Dorianning hislari dekadentizmning yaqqol tasviri misolidir.

Keyingi misol esa axloqiy buzuqlik va ruhiy yemirilishdir.

Dorian tashqi tomondan go'zal, lekin ichki olami tobora axloqan yemirila boradi. U qilgan har bir gunohi portretiga o'z ta'sirini o'tkazadi, u buni birinchi qilgan vijdotsizligi, ya'ni sevgan qizi Sibilni tashlab ketganda payqaydi, aynan o'sha paytda portretda xunuk irjaygan tabassumdagi Dorian paydo bo'ladi, u shu kabi dahshatli

ishlarni juda ko'p sodir etadi, hattoki o'z do'sti Bezilning qotiliga ham aylanadi, rasm esa tobora dahshatli tus ola boshlaydi. Roman davomida Dorian shunday deydi:

“Men qanday bo‘lishni xohlasam, portret shunday ko‘rsatadi. Portret — mening vijdonim.”

Bu yerda portret ramz sifatida ishlatiladi: u insonning ko‘zdan yashirilgan axloqiy ahvolini ifodalaydi. Dorian go‘zallikni saqlab qolish uchun qanchalik tubanlashmasin, u bunga tayyor. Bu esa dekadentizmning axloqiy indifferentlik (beparqlik) tamoyiliga mos keladi.

Yana bir misol sifatida san‘at va hayot o‘rtasidagi qarama-qarshilikni olishimiz 1

Romandagi salbiy qahramonlardan biri Lord Genri Uottonning vazifasi bu jamiyatdagi qadryatlarni yo‘q qilish, yoshlarning ongini zaharlash hamda go‘zallikni targ‘ib qilish. U shunday deydi:” Axloq bu jamiyat tomonidan o‘ylab topilgan narsadir, bu hayotdan faqat zavq olib yashash kerak.” (*“The only way to get rid of a temptation is to yield to it.”*)

Bu g‘oya — Uayld estetik qarashlarining mahsuli. U Genri orqali shuni ko‘rsatadiki, san‘at va estetik hayot ko‘p hollarda axloqiy tamoyillar bilan to‘qnashadi. Bu to‘qnashuv Dorian taqdirida halokat bilan tugaydi.

Ikkilik (dualizm) – tashqi va ichki o‘rtasidagi tafovut

Romanda Dorianning tashqi ko‘rinishi doimo go‘zal bo‘lib qoladi, ichki dunyosi esa tobora chiriydi. Bu ikkiyuzlamachilik orqali yozuvchi dekadent insonning ruhiy holatini ifodalaydi. Portret esa buni vizual tarzda ko‘rsatadi:

“Uning yuzi hali ham farishtadek edi, lekin rasm... rasm dahshatli edi. Ko‘zlar — nafrat, og‘iz — jirkanchlik to‘la edi.”

Bu iqtibos orqali Uayld inson ichki olamining tashqi go‘zallikka zid bo‘lishi mumkinligini fosh etadi. Bu esa psixologik dekadensiyaning timsolidir.

Jamiyatga tanqidiy qarash va dekadent tanqidga keladigan bo‘lsak, bu, ya’ni dekadent tanqid jamiyatdagi dekadent oqimga qarshi bildirilgan tanqidiy fikrlar, qarashlardir. Uayld asar davomida Viktorian Angliyasining ikkiyuzlamachiligini,

nojo‘ya axloqiy standartlarini tanqid qiladi. Lord Genri obrazi orqali yozuvchi shunday fikrni bildiradi:

“Zamonaviy jamiyat bu — yolg‘onlar ustiga qurilgan maskarad.”

Bu tanqid orqali Uayld jamiyatda haqiqat va axloqiy me‘yorlar emas, balki tashqi ko‘rinish va obro‘ga asoslangan qadriyatlar hukmronligini ko‘rsatadi. Buni asarda ham ko‘rishimiz mumkinki, Lord Genri va Dorian har doim zodagonlar davrasida bo‘lishadi, Dorianning go‘zalligiga barcha oshiq bo‘ladi, chunki uning ichki emas tashqi go‘zalligi u jamiyat a‘zolar uchun muhim edi.

Individualizm va egoizmga keladigan bo‘lsak,

Dekadentizmga shaxsiy zavq va individual istaklar jamiyatdan ustun qo‘yiladi.

Misol (Lord Genri):

“O‘zingga sodiq bo‘lish — bu yagona axloqiy burchdir.”

(*“To be good is to be in harmony with oneself.”*)

Bu jumla axloqiy individualizm tamoyilini ifodalaydi. Dorian aynan shu g‘oya ta‘sirida o‘z zavqi uchun boshqalarni qurbon qilishga tayyor bo‘ladi (masalan, Sibil Veynning o‘limi).

Olingan natijalar va ularning tahlili. Shuningdek, asardagi dekadentlik g‘oyalari tasviriy vositalar, asardagi xarakterlar va boshqa bir qancha o‘rinlarda ochib berilgan. Asardagi tasviriy vositalar yordamida dekadentlik ruhiyati yoritib berilganiga kerladigan bo‘lsak, bular portret vijdon va axloq timsoli sifatida qaralgan;

Dorianning tashqi ko‘rinishi – go‘zallik bilan niqoblangan ichki buzuvchilik;

Sibil Veynning o‘limi – estetik mukammallikdan chekinish evaziga jazolanish ko‘rinishida o‘z aksini topgan. Uayld estetik shakllar orqali insoniy qadriyatlarning yemirilishini, ruhiy inqirozni ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, asardagi xarakterlar ham dekadentizm g‘oyalarining timsoli sifatida tahlil qilinadi. Bunda asardagi qahramonlar muhim o‘rin egallaydi Dorian Greyn – zavqparast, individualist va axloqiy beparvo obraz Lord Genri – dekadentizm falsafasining targ‘ibotchisi, hayotdan go‘zallik orqali ma‘no izlovchi Bezil – san‘atning muqaddasligini saqlab qolishga intiluvchi, lekin qurbon bo‘luvchi idealist

sifatida dekadentizm g'oyalarining timsollariga aylangan. Bu roman Oskar Uayldning yagona romani bo'libgina qolmay, dekadentizm g'oyalrini aks ettirgan romandir. Zero, Bloom Uayldni "murakkab va dualistik shaxs" deb ataydi. Uningcha, Dorian obrazida inson tabiatidagi qarama-qarshi tomonlar — nafosat va tubanlik to'qnashadi[3]. Oskar Uayld hayotining o'zi estetikaga boy edi deb baholaydi boshqa ko'pgina shoir va yozuvchilar. Ba'zi zamonaviy adabiyotlarda keltirilishicha, Uayld asarida dekadentizmga doir psixologik jihatlar ham o'z aksini topgan, masalan, narsistik shaxsiy tip va uning halokatli oqibatlar ham tahlil qilingan. Buni asar so'ngidagi Dorian Greyning dahshatli o'limi misolida ham ko'rishimiz mumkin. Yana bir misol sifatida esa Dorianning qilmagan birgina yomon ishi, ya'ni oddiy qishloq qiziga zarar keltirmaganini u yaxshilik deb o'ylaydi hamda suratda o'zgarish sodir bo'lishini kutadi, bularning barchasi uning psixologiyasidagi o'zgarishlar bilan bog'liq. Bu asarda dekadentizm estetikasi, erotizm (bu insoniy ehtiros, jinsiy istak va joziba bilan bog'liq estetik va ruhiy holatni ifodalovchi tushunchadir, u ko'pincha san'at, adabiyot va falsafada jismoniy muhabbat, romantik ilhom, yoki go'zallikning jinsiy timsoli sifatida tasvirlanadi) va o'lim o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilinadi. Prazga ko'ra, Dorianning hayoti — go'zallik ortida yashirinayotgan o'limning estetikasidir.[4]. Darhaqiqat, Dorian qanchalik go'zal bo'lmasin, uning ichki dunyosi tubanlashib ketgan. Buni portretning shu darajada xunush tusga kirishidan ham ko'rishimiz mumkin.

Muhokama. Asarga tanqidiy yondashuv ham juda muhim hisoblanadi. Muallif Dorianning halokatini ko'rsatish orqali ham bu oqimning, ya'ni go'zallikka intilish hamda hayotni shu darajada sevish va undan zavq olishning ham qanchalik axloqiy yemirilishga, manaviyatning buzilishigiga olib kelishini ochib beradi. Dorianning o'z portretini yo'q qilishga uringani orqali uning o'z vijdoni, o'z ruhiy inqirozini yo'q qilishga intilishi yaqqol ko'rsatiladi, biroq bu harakat o'zining o'limi bilan yakunlanadi. Bu sujet yechimi orqali muallif dekadentizm falsafasini tanqid ostiga oladi.

Shuningdek, san'atning jamiyatdan uzilishi masalasi ham muhokama qilinadi. Asar nafaqat shaxsiy inqiroz, balki jamiyatdagi axloqiy tamoyillarning zaiflashuvi haqida ham mulohaza yuritadi. Bu orqali Oskar Uayld o'z zamonasidagi san'at va axloq o'rtasidagi ziddiyatni badiiy ifodalagan.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Oskar Uayld 19-asrda aynan o'zining romani orqali dekadentizmni, ya'ni go'zallikka intilishni targ'ib qilgan yozuvchilardan biridir. Uning asari aynan dekadentizmning yorqin misoli bo'la oladi. Bunda bir inson hayotining qay darajada tubanlikka kirib ketishini, atrofidagi salbiy insonlar ham bir insonning hayotini, vijdonini shu qadar tubanlikka olib kelganini ko'rishimiz mumkin. Qolaversa, Uayld bu g'oyalarni biryoqlama targ'ib etmaydi, aksincha, dekadentizm falsafasining halokatli oqibatlarini chuqur badiiy vositalar orqali fosh etadi. Bu borada mashhur adabiyotshunos Richard Ellmann quyidagi fikrni bildirgan: "Oskar Uayld o'zining yagona romanida estetikizm va axloqiy tanazzul o'rtasidagi ziddiyatni shu darajada kuchli ochib berganki, bu asar faqat o'z davri uchun emas, balki har bir zamon uchun axloqiy ogohlantiruv sifatida xizmat qiladi."^[5]

Darhaqiqat, garchi Oskar Uayld bu asarini yozish uchun bor-yo'g'i 13 kun vaqt sarflagan bo'lsa-da, hali-hanuz bu asar salkam 3-4 asrlardan beri o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q, bu asar nafaqat o'z davri uchun, balki bugungi kun uchun ham axloqiy ogohlantiruv sifatida xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bloom Harold. Bloom's How to Write about Oscar Wilde. Edited by Amy S. Watkin, New York: Infobase Publishing, 2009. ISBN: 978-1-60413-693-1.
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)
3. Bloom Harold. Bloom's How to Write about Oscar Wilde. Edited by Amy S. Watkin, New York: Infobase Publishing, 2009.
4. Praz Mario. The Romantic Agony. Translated by Angus Davidson, Oxford University Press, 1933.
5. Wilde Oscar. A Reply to the Criticism of The Picture of Dorian Gray. St. James's Gazette, July 1890.